

XIVA XONLIGI HUDUDIDA YASHAGAN XALQLARNING ETNIK TARKIBI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi
Bektoshev G'iyosiddin Saxriddin o'g'li

Annotatsiya: Mazkur maqola Xiva xonligi hududida yashagan xalqlarning etnik tarkibini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda Xiva xonligi tarkibida bo'lgan hududlarda yashagan assosiy etnik guruqlar — o'zbeklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va boshqa xalqlarning joylashuvi, ularning xo'jalik hayoti va madaniyati haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, maqolada bu xalqlarning xonlik ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni va o'zaro munosabatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, etnik tarkib, o'zbeklar, qoraqalpoqlar, turkmanlar, qozoqlar, etnoslarning shakllanishi, hududiy xilma-xillik, an'ana va urf-odatlar.

Abstract: This article is devoted to the analysis of the ethnic composition of the peoples who lived in the territory of Khiva Khanate. It contains information about the location of the main ethnic groups - Uzbeks, Turkmens, Karakalpaks, Kazakhs and other peoples - their economic life and culture. Also, the role and mutual relations of these peoples in the socio-political life of the Khanate is studied in the article.

Key words: Khiva Khanate, ethnic composition, Uzbeks, Karakalpaks, Turkmens, Kazakhs, formation of ethnic groups, territorial diversity, traditions and customs.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу этнического состава народов, проживавших на территории Хивинского ханства. Содержит сведения о местонахождении основных этнических групп - узбеков, туркмен, каракалпаков, казахов и других народов - их хозяйственной жизни и культуры.

Также в статье исследуются роль и взаимоотношения этих народов в общественно-политической жизни ханства.

Ключевые слова: Хивинское ханство, этнический состав, узбеки, каракалпаки, туркмены, казахи, формирование этносов, территориальное разнообразие, традиции и обычаи.

Kirish.

Xiva xonligi Markaziy Osiyoning boy tarixi va madaniyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan davlatlardan biridir. XVI asr oxiri va XX asr boshlariga qadar davom etgan bu xonlik geografik joylashuvi, iqtisodiy salohiyati va etnik xilma-xilligi bilan ajralib turgan. Amudaryo bo'yalaridagi serhosil yerlar, savdo yo'llarining kesishgan nuqtasi bo'lishi va ko'p asrlik davlat an'analarini bu hududda turli xalqlarning birlashishiga va o'ziga xos madaniyat shakllanishiga zamin yaratgan. Xonlik hududida o'zbeklar, qoraqalpoqlar, turkmanlar, forslar, tojiklar va boshqa xalqlar yashagan bo'lib, ularning o'zaro ta'siri madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda o'z aksini topgan. Har bir xalq o'ziga xos madaniyati, tili, urf-odatlari bilan xonlikning umumiy madaniy qiyofasini shakllantirishga o'z hissasini qo'shgan. Ushbu hududda yashovchi xalqlar o'rtasida nafaqat iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalari rivojlangan, balki ular o'zaro madaniy hamkorlikni ham mustahkamlagan.

Tatqiqot metodologiyasi:

Qiyoslash, taqqoslash, solishtirish.

Adabiyotlar tahlili:

Mavzuni yoritish uchun bir nechta ilmiy asar va maqolalardan, shu bilan birga xorijiy adabiyotlardan ham keng foydalanildi. Jumladan, Bahodir Eshovning "O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruvi tarixi", Bahodir Eshov va To'lqin Xudoyqulovning "O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi (Xonliklar davri)" va Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" kabi manba va adabiyotlar taxlil qilindi.

Muhokama va natijalar:

Xiva xonligining o'troq dehqonchilik vohalarida asosan o'zbeklar yashab, ular davlatdagi aholining ko'pchilagini tashkil etishgan. Xonlikda shuningdek, turkmanlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, oz miqdorda tojiklar, yahudiylar, hindlar, eroniylar ham yashashgan. Xiva xonligidagi aholining umumiy soni haqida ma'lumotlar deyarli yo'q. Arxiv hujjatlari va rus sayyoohlarning ma'lumotlari bu masalaga qisman aniqlik kiritadi. Xususan, XIX asrning birinchi choragiga oid ma'lumotlarda xonlik aholisi 300 ming, shu asrning 40-yillariga oid ma'lumotlarda 300 mingga yaqin, so'nggi choragiga oid manbalarda 700 mingga yaqin deb berilsa, arxiv manbalarini chuqur o'rgangan olim M.Yo'ldoshev XIX asr o'rtalarida xonlikda 800 mingga yaqin odam istiqomat qilganligi haqida ma'lumot beradi. XIX asrning o'rtalariga kelib xonlikda shahar hayotining rivojlanishi natijasida shahar aholisining soni ko'payib boradi. Xiva, Hazorasp, Xonqa, Urganch, Qo'ng'iroq, Ko'hna Urganch kabi shaharlarda rus sayyoohlari bergen ma'lumotlarga ko'ra, 2 mingdan 5 minggacha xonodon yashagan. Xonlik poytaxti Xiva shahrida 21 mingdan ortiq aholi istiqomat qilgan.[1] Xorazm aholisining etnik qiyofasi bir xilda bo'lмаган. Mazkur qiyofa vohada ro'y bergen siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga bevosita bog'liq bo'lган. Aholining ma'lum qismini Xorazmning qa-dimiy ziroatkor o'troq aholisi avlodlari - xorazmliklar tashkil etib, asrlar davomida u turkiy qavmlar ta'sirida o'sib borgan. Shuningdek, turli davrlarda vohaga kirib, shu yerda qolib ketgan qipchoq va boshqalar ham shu aholiga singib borgan. Aholi turkiy qavm ta'sirida turkiy tilni o'z ona tillari sifatida qabul qilishgan.[2] XVI-XVII asrlarda Xorazm hududiga Dashti Qipchoq tomonidan ko'plab qabilalarning kirib kelishi jarayoni boshlandi. Bu qabilalarning katta qismi mahalliy aholi ta'sirida o'troq turmush tarzini qabul qilishgan. Munis Xorazmiyning ma'lumotiga ko'ra, o'troq va ko'chmanchi aholi orasida munosabatlami mutanosiblashtirish va qabilalar ustidan nazoratni to'laqonli ravishda amalga oshirish maqsadida Abulg'ozixon ularni 4 ta guruhga bo'ladi. Dashti Qipchoqdan kelgan aholining bir qismi ko'chmanchi hayot tarzini saqlab qolgan. Xonlikning shimoli-sharqiy chekkasida qoraqalpoqlar hayot kechirishar, mazkur qavm bu yerlarga XVI

asrda Sirdaryo bo'yalaridan ko'chib kelishgan. Qoraqalpoqlar XVIII-XIX asr birinchi yarmida chorvachilik, baliqchilik va qisman dehqonchilik bilan ham mashg'ul bo'lishgan. Dasht qismida ko'chmanchi hayot tarzini kechirgan qozoqlarning aksariyati chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Xorazmning g'arbiy qismi va janubiy tomonlarida turkmanlar yashashgan. Turkmanlarmng katta qismi yarim ko'chmanchi hayot tarziga ega bo'lishgan. XIX asr 2-yarmiga kelib turkmanlar o'zbeklardan keyin soni bo'yicha xonlikda 2-o'rinda turishgan. Ular jami aholining 25% ni tashkil qilgan. 1819- yili xonlikda bo'lган Muravyov xonlik aholisining umumiyl som 300 ming atrofida bo'lган deb yozgan edi.[3] Xorazmga ko'chib kelgan va soni ortib borayotgan o'zbek urug'lari orasidagi ziddiyatlar mahalliy aholi (sartlar) va turkmanlarning o'zaro munosabatlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan. Amudaryo irmoqlariga yaqin yerkarni o'zlashtirgan mahalliy aholi dehqonchilik bilan shug'ullanib, bog'-u rog'lar, bug'doyzorlar barpo etgan bir vaqtida, asosan, chorvachilik bilan mashg'ul ko'chmanchilarning hayoti, turmush tarzi, urf-odatlari yangi bir etnik muhitni shakllantira boshladi.[4] Xiva xonligi hududida yashagan xalqlarning etnik tarkibini o'rganish bu hududning boy tarixiy merosini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Xonlikda turli millat va elat vakillari bиргаликда yashab, madaniy hamda ijtimoiy hayotni shakllantirishda faol ishtirok etgan.

Xulosa. Xiva xonligi

hududidagi etnik guruhlarning ko'pchiligi o'z madaniyatini saqlab qolgan holda, mahalliy an'analar bilan uyg'unlashib, bu hududda turli xil etnik va madaniy muhitni shakllantirgan. Bu xonlikning siyosiy va ijtimoiy barqarorligi, shuningdek, o'zaro totuvlik tamoyillari asosida rivojlangandan dalolat beradi. Xiva xonligi etnik jihatdan rang-barang bo'lib, uning tarixiy taraqqiyoti hamda madaniy merosi ushbu xilma-xillik natijasi sifatida bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bahodir Eshov "O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi", Yangi asr avlodi – Toshkent 2019

2. B.J. Eshov, A. A. Odilov “O’zbekiston tarixi” II kitob (XIV asr o‘rtalaridan - XIX asr ikkinchi yarmigacha) “Donishmand ziyosi” - Toshkent 2020
3. Bahodir Eshov va To’lqin Xudoyqulov “O’zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi (Xonliklar davri)” – “O’ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” NMIU Toshkent – 2023
4. M.Mahmudov, U.Sheripov “Xiva xonligi tarixi” – Urganch 2013
5. Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy”, Meros to’plami – Toshkent 1991